

TEACHING UZBEK LANGUAGE TO STUDENTS (GOALS AND OBJECTIVES OF THE SCIENCE)

Ibodullayeva Inobat Nurulla qizi

The Republic of Karakalpakstan

Nukus State Pedagogical Institute Uzbek Language Teacher

ANNOTATION

The purpose of teaching the subject is to show future teachers the theoretical views on modern forms and methods of studying fiction and the pedagogical and methodological possibilities of their application in practice.

FANNING VAZIFASI

talabalarga o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasining ilg'or yutuqlarini, amalda badiiy asarni tahlil qilish, darsning ilmiy-nazariy asoslarini; adabiyotga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini; adabiy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy-estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishga o'rgatishdan iborat. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarining shaxsiy sifatlarini baholashga o'rgatish jarayonini tashkil etish usullari, metodlarini, ularni mustaqil mulohaza yuritishga undash va muammolarning yechimiga ijodiy yondashishga o'rgatish, mustaqil tarzda xulosalar chiqarishga, bunda ularning verbal-lingvistik intellektini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimidan foydalanishga o'rgatiladi.

O'zbekiston ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini horij tajribalaridan foydalanib amalga oshirishga o'rgatish nazarda tutilgan.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

- "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanining obyekti va predmeti;
- o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fanining ta'lim tizimidagi tutgan o'rni;
- o'zbek adabiyoti ta'limining taraqqiyot bosqichlari, fanni o'qitish metodlari va usullari;
- o'zbek adabiyoti fani bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarining xususiyatlari;
- o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatini amalga oshirish metodikasi, adabiyot o'qitishda darslarni kompyuterlashtirish, masofaviy ta'lim va uning xususiyatlari, adabiyot darslarida internetdan foydalanish yo'llari va madaniyato, ma'lumotlar omboridan samarali foydalanish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi o'zbek adabiyoti fanlari dastur va darsliklari mazmuni;
- o'zbek adabiyotini o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslarini, adabiyot o'qitish metodlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini bilishi;
- badiiy asar tur va janr xususiyatlariga ko'ra tahlil qila olish;
- o'zbek adabiyoti fani bo'yicha o'quvchilarni mustaqil tahsil olishga yo'llash;

- ta'lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan metod va usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi
- mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, badiiy asarni tahlil qilish va baholash mezonlarini, Blum taksonomiyasi asosida fanining o'qitish bosqichlarini belgilay olishi, o'quvchilarining og'azki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni qo'llay bilishi kerak;
- fan dasturi, ishchi dasturi asosida kalendar tematik rejani tayyorlash, darsliklar ustida ishlash, malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va rejalashtirish;
- talaba ta'limning turli boshqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish malakalariga ega bo'lishlari kerak.

III. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va usuliy jihatdan uzviy ketma-ketligi.

Bakalavriyat talabalarining adabiyotdan olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etib, o'quvchilarga "Adabiyot" fanidan dars berish usullarini o'rgatishga yo'naltirilgani bilan e'tiborga loyiq bu fan o'quv rejasidagi bir qator yondosh fanlar bilan uzviy aloqaga egadir.

"O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani ona tili o'qitish metodikasi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlari bilan aloqador bo'lgani uchun shu fanlar to'liq o'rganib bo'lingandan so'ng o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslik yoki adabiyotshunoslikka doir fanlarni o'zlashtirib olishning o'zi umumiy o'rta maktab yoxud o'rta maxsus ta'lim bosqichida bu yo'nalishdagi fanlardan dars berish uchun yetarli emas. Buning uchun talabalar xususiy metodikaning talablari, usul va yo'llaridan xabardor bo'lishlari kerak. Shuningdek, pedagogika fanlari tizimiga kiradigan "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix singari yondosh ilmlar bilan chambarchas aloqadadir.

IV. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.

Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy maktab filologik ta'limini yo'lga qo'yishda ushbu fan hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi tizimdan o'rin olgan boshqa har qanday fanni o'qitishning samaradorligi uchun tayanch hisoblanadi. Shuning uchun ham "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanini to'liq o'zlashtirish nafaqat ta'lim tizimi, balki xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

V. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimediya vositalaridan

foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“O'zbek adabiyotini o'qitish” fani kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash: yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi: ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, jamoa va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita oʻzaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-soʻrov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida oʻqitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: oʻquv mashgʻuloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta koʻrinishidagi oʻquv mashgʻulotlarini rejalashtirish, qoʻyilgan maqsadga erishishda oʻqituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashgʻulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: oʻquv mashgʻulotida ham butun kurs davomida ham oʻqitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

«Oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi» fanini oʻqitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular boʻyicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmogʻidan, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch soʻz va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar oʻtkaziladi.